

## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FAN ARBOBI G'AFUR ABDUMAJIDOV-ILMIY MEROSI

O'tashova Iroda Husnidin qizi

Toshkent davlat yuridik universiteti

Jinoiy odil sudlov fakulteti 2-kurs "A" patok talabasi.

Email: [irodaotashosheva@gmail.com](mailto:irodaotashosheva@gmail.com)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15399537>

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Fan arbobi, yuridik fanlari doktori, professor G'afur Abdumajidovning ilmiy faoliyati va ilmiy merosi, shuningdek, uning adolat dargohiga chuqur ihlos va mehr bilan kirib kelishi haqida hikoya qilinadi. Ustozning O'zbekistonda yurisprudensiya, inson erki va manfaatlari himoyasida ko'rsatgan jonbozligi bayon qilinadi.

**Kalit so'zlar:** ensiklopedik olim, ilmiy daraja, dissertatsiya, kiriminalistika, huquqiy targ'ibot, ilmiy meros, jinoyat huquqi, jinoyat protsessi.

## УЧЕНЫЙ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН ГАФУР АБДУМАЖИДОВ-УЧЕНЫЙ НАСЛЕДИЕ

**Аннотация.** В данной статье рассказывается о научной деятельности и научном наследии учёного Республики Узбекистан, доктора юридических наук, профессора Гафура Абдумаджидова, а также о его глубокой преданности и любви предстать судом. Описано рвение, проявленное учителем в защите юриспруденции, прав и интересов человека в Узбекистане.

**Ключевые слова:** учёный-энциклопедист, учёная степень, диссертация, криминология, юридическая адвокатура, научное наследие, уголовное право, уголовный процесс.

## GAFUR ABDUMAJIDOV, SCIENTIST OF THE REPUBLIC UZBEKISTAN- SCIENTIFIC HERITAGE.

**Abstract.** In this article, the scientist of the Republic of Uzbekistan, legal doctor of sciences, professor Gafur Abdumajidov's scientific activity and scientific heritage, as well as his deep devotion and love to enter the court of justice are told. The deal shown by the teacher in the defense of jurisprudence, human rights and interests in Uzbekistan is described.

**Key words:** encyclopedic scientist, academic degree, dissertation, criminology, legal advocacy, scientific heritage, Criminal law, Criminal procedure.

### Kirish.

G'afur Abdumajidov Abdumajidovich O'zbekistonda professional yurisprudensiya, huquq ilmi, nazariyasi, amaliyoti shakllanib va takomil topishida munosib hissa qo'shgan O'zbekiston Respublikasi Fan arbobi yuridik fanlar doktori, professor, ko'plab nazariy va amaliy qo'llanmalar mualiffi, jurist-huquqshunoslarning ustozi desak adashmagan bo'lamic.

Ustoz G'afur Abdumajidov 1928-yil 28-iyunda azim shahar bo'l mish Samarqandda tavallud topgan. Otasi Abdumajid aka Abduazizov va onasi Hikoyat aya qo'lida yaxshi tarbiya olib voyaga yetadi. Oilada katta farzand bo'lgan ustoz emas balki 8 nafar farzand o'sib ulg'ayib, el yurtga kori yaraydigan insonlar bo'lib yetishadi<sup>1</sup>.

<sup>1</sup> Adolat dargohida: yuridik fanlar nomzodi S. M. Rahmonova. T.: TDYU kichik bosmaxonasi, 2008.-9 b.

Otasi asli Buxoroning G'ijdivon shahridan edi. Sho'ro davrida hunarmandchilik bilan turli artellarda faoliyat ko'rsatgan bu insonning taqdiri Samarcand bilan bog'lanadi. Kichik sex ochib, telpak-paypoq, do'ppi tikish va sotish bilan shug'ullanadi.

Ustoz Ga'fur Abdumajidov o'rta ta'limga to'liq olmasdan, 15 yoshida Adliya komissarligining yuridik maktabiga kiradi va uni imtiyozli tamomlab, so'ngra Toshkent yuridik institutiga qabul qilinib, bitirishi bilan prokuratura organlarida ishlay boshlaydi. Ustoz 14 yoshidan boshlab amaliyotda yuristlik faoliyati bilan shug'ullanishni boshlaydi.

G'afur Abdumajidov 70 yil davomida inson huquqlari va erkinliklarini ta'minlash yo'lida ancha - mucha savobli ishlar qiladi. Ustoz nafaqat bitta soha bilan emas balki bir nechta soha bilimdoni desak bo'ladi. Shuning uchun ham ustozni "ensiklopedik olim" deb atashgan.

### Tadqiqot natijalari va ularning tahlili

Ustoz G'afur Abdumajidov 1944-1945-yillarda tuman sudida kotib, sud ijrochisi bo'lib ishlagan. Toshkent yuridik institutini 1948- yilda tamomlab, 1951- yilgacha rayon prokraturasida tergovchi bo'lib ishlaydi. 1951- yildan boshlab O'zbekiston Respublikasi prokurori huzurida eng muhim ishlar bo'yicha tergovchi bo'lib xizmat qilgan.

Hayotida muhim jiddiy burilishiga sabab bo'lган inson muhtarama akademik ustoz Xadicha Sulaymonova bilan bog'liq. Ustoz Xadicha Sulaymonova G'afur Abdumajidovniga aspiranturada o'qishini va Respublikada Kriminalistika bo'yicha birinchi fan nomzodi bo'lishga rahnamolik qiladi. 1957-1960- yillarda Sant-Peterburg universitetining Aspiranturasida tahsil olib, yuridik fanlar nomzodi ilmiy darajasi uchun dissertatsiyasini muvaffaqiyatli yoqlaydi hamda O'zbekistonda birinchi kriminalist bo'lib taniladi.

G'afur Abdumajidov 1961-yil 7-martda nomzodlik ilmiy ishini himoya qilganda, ustoz akademik Xadicha Sulaymonova yosh tadqiqotchiga ustoz sifatida Leningradga borgan. O'zining teran va aniq fikrlari bilan shimoliy poytaxtda nutq so'zlab ziyolilarni qoyil qoldirgan. 8-mart bayramida huquqshunos olimlar o'zbek ayolini gullarga ko'mib tashlagan edilar.

1961-1965-yillarada O'zbekiston Fanlar Akademiyasida Falsafa va huquq institutida katta ilmiy xodim, "Jinoyat huquqi va protsessi" sektorining mudiri, 1966- 1973-yillarda O'zbekiston Oliy Soveti Preziumining "Yuridik bo'limi"ni boshqarib, Mehnat, Oila-nikoh, Yer, Suv to'g'risidagi kodekslari, "Tabitani muhofaza qilish to'g'risida", "Ekinlarni al mashlab ekishni joriy etish va yerlardan to'g'ri foydalanishni ta'minlash to'g'risida" va shu kabi ko'plab qonun loyihamini tayyorlashga boshchilik qilgan.

"Jinoyatlarni tergov qilish nazariyasi, qonuniy tartibi va amaliyotiga oid muammolar" mavzusida doktorlik dissertatsiyasini tugatib, 1983- yilda SSSR FA Davlat va huquq institutida muvaffaqiyatli yoqlab, yuridik fanlar doktori ilmiy darajasiga, 1985- yil professor ilmiy unvoniga sazovor bo'lgan.

Ustoz G'afur Abdumajidov yuridik ta'limga oid 600 dan ziyoda ilmiy asarlar mualiffi. "Jinoyatlarni tergov qilishga oid qonunlarning rivojlanishi", "Dastlabki tergovni takomillashtirish muammolari", "Kriminologik lavhalar", "Tuxmatomuz yumaloq xat mualliflarini fosh etish taktikasi", "O'zbekiston davlat va huquq tarixi", "O'zbekistonda sud hokimiysi: islohotlar davri", "Jinoyat huquq", "Jinoyat protsessi", "Kriminalistika", "O'zbekiston Respublikasi Jinoyat -protsessual kodeksiga sharxlar", "O'zbekiston Respublikasi Jinoyat -ijroiya kodeksiga sharxlar" kabi shular jumlasidan. 2002-yilda yozilgan "Sud hokimiysi: Islohotlar davri" kitobida sud va huquq tizimini takomillashtirish, uning odil sudlovni amalga oshirishda samarali faoliyat ko'rsatishi va ba'zi nuqsonlardan xalos bo'lish borasida alohida muhim muammolarni hal qilishga oid o'ta dolzarb fikrlar bor.

“Konstitutsiyaviy sud vakolatlarini kengaytirish lozim. Unga har qanday davlat organlari, mansabdar shaxslar, shu jumladan. Hokimlarning normativ huquqiy hujjatlari ustidan fuqarolarning murojaat va shikoyatlarini bevosita ko’rib chiqish va hal qilish huquqini berish<sup>2</sup>” Ustozning ilmiy ishlari MDH mamlakatlari nashriyotlarida (Moskva, Sant-Peterburg, Kiyev, Samara, Iskurtk, Olma-Ota va boshqalar) ham nashr qilingan.

Ustoz G’afur Abdumajidovning xizmatlari yuqori baholanib, 1970-yilda “Shavkatli mehnati uchun” medali, 1971-yil “Hurmat belgisi” ordeni, 1983- yil “Militsiya a’lochisi” ko’krak nishoni, 1984-yil “Halol mehnatlari uchun “3-darajali medal, 1987- yil “Mehnat faxriysi” medali bilan mukofotlangan. Yuridik fan sohasida yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashda erishgan yutuqlari uchun 1987- yilda “O’zbekiston Respublikasida xizmat ko’rsatgan fan arbobi” faxriy unvoniga sazovor bo’lgan. 1991- yil “Faol xizmatlari uchun “Butunittofq “Bilim” jamiyatining nishoni bilan taqdirlanadi.

Asosiy qonunimiz hisoblangan Konstitutsiyamizning tayyorlanishi bo’yicha Konstitutsiyaviy komissiyaning a’zosi bo’lib, mustaqil O’zbekiston Konstitutsiyasi loyihasini tayyorlashda faol ishtirok etadi va 1992- yil “Mustaqillik “esdalik nishoni, 1995-yil “Fashizm ustidan qozonilgan g’alabaning 50 yilligi” medali, 1995-yil “Shuhrat “medali bilan mukofotlanadi.

G’. Abdumajidov 1995- yil 22-dekabrdagi O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudning sudyasi, 2000-2003-yillar Adliya vazirligi huzuridagi Respublika Huquqiy ma’rifat targ’iboti markazi direktori lavozimida faoliyat ko’rsatish bilan bir qatorda Toshkent davlat yuridik instituti va Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universitetida ilmiy- pedagogik faoliyat olib boradi. Toshkent davlat yuridik institutining markaziy kaferdralaridan biri hisoblangan “Jinoyat protsessi” kafedrasida faol xizmat qiladi.

## Xulosa

Ustozning ilmiy izlanishlari qonuniylikni mustahkamlash, jinoyatlarni fosh etish, tergov jarayonida fuqarolarning huquq va erkinliklarini kafolatlash, jinoyatga qarshi siyosatni takomillashtirish bilan baholanadi.

Yirik mutaxassis nazarichasi sifatida sudya va tergovchining mustaqilligi va faqat qonunga bo’ysunishini kafolatlash, guman ostiga olingan, ayblangan shaxslarni himoyachi bilan ta’minalash, jinoyat ishlarini yuritidh chog’ida jabrlanuvchi va boshqa muhokama ishtirokchilarining huquqlarini jiddiy kengaytirishga oid takliflarni ilgari suradi va asoslab beradi.

Ustozning bir qator tavsiyalari 1994-yilda qabul qilingan Jinoyat protsessual kodeksida o’z ifodasini topgan. G’afur Abdumajidovning sud-huquq islohotlarini liberallashtirishga qaratilgan g’oyalarini uning shogirtlari davom ettirmoqda. Ustozning bevosita ilmiy rahbarligida 40 ga yaqin fan nomzodlari va fan doktorlari yetishib chiqdi.

Fidoiy ustoz umrining oxirgi yillari ham Toshkent davlat yuridik instituti va Adliya vazirligi huzuridagi Yuristlar malakasini oshirish markazida yetuk yurist kadrlar tayyorlashda va mamlakatimiz huquqshunoslari malakasini oshirishda sidqidildan mehnat qiladi.

O’zbekiston Respublikasi Fan arbobi, yuridik fanlar doktori, professor G’afur Abdumajidovning ilmiy merosi yana uzoq yillar mobaynida o’zbek huquq ilmini rivojlantirishda asos bo’lib xizmat qiladi.

<sup>2</sup> Sud hokimiyyati: Islohotlar davri/G’. A.Abdumajidov -T.: “Hayot va qonun” 2002, 1-son, 10-bet

**REFERENCES**

1. Adolat dargohida: yuridik fanlar nomzodi S.M.Rahmonova T.: TDYU kichik bosmaxonasi, 2008.-91 b.
2. Sud hokimiyati: Islohotlar davri/G'.A.Abdumajidov-T.: "Hayot va qonun" 2002, 1-son, 10 b